

## O'ZBEKISTON DAVLATIDAGI ILK HUDUDLAR VA ZARDUSHSHTIYLIK DINI

**Dilboyeva Mexribonu**

*Qarshi shahridagi Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti  
Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisoiyot fakulteti Tarix yunalish  
2-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yurtimiz tarixidagi ilk davlatlar hamda zardushtiylik dini haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *O'rta Osiyo, patriarchal, So'g'd, Baqtra, ijtimoiy-iqtisodiy, Panjikent, Sarazm.*

O'rta Osiyoda Miloddan avvalgi 3 ming yillikning o'rtalarida bronza (mis, qalay va qo'rg'oshin qorishmasi) davri boshlanishi bilan ota urug'i - patriarchat topadi. Bronza davrida dehqonchilik xo'jaligi yangi erlarda, jumladan O'zbekiston hududida ham keng yoyilgan. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar yangi asosda taraqqiy etadi.

O'rta Osiyoda qabilalar tomonidan yangi erlarni keng o'zlashtirish jarayoni miloddan avvalgi 4 ming yillikning oxiri - 3 ming yillikda boshlangan. Zarafshonning yuqori qismida, Panjikent shahridan 15 km g'arbda topilgan 90 hektar maydonda joylashgan Sarazm qishlog'i harobasi moddiy topilmalarida Janubiy Turkmaniston ziroatchilari va Xorazmning Kaltaminor madaniyatlariga mansub buyumlar bor. Xuddi shu davrda (miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklarda) Afg'onistonning shimoli-sharqida Hind-Pokistonning mashhur Xarappa madaniyati vakillarining makonlari paydo bo'ladi.

Bronza davrida O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida baland bo'yli, boshi cho'zinchoq, yuzi tor odamlarning vakillari tarqalgan. O'rta Osiyoning shimoliy dasht va cho'l qismida janub aholisidan farq qilgan boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho'ziq bo'limgan qabilalar yashagan. Janubiy qiyofali odamlar O'rta er dengizi irqining vakillari deb ataladi. Ular Olb Osiyo, Mesopotamiya, Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyoning janubi, Hindiston kabi katta grafik hududga yoyilganlar. Shimoliy qiyofali odamlar Janubiy Sibir hududidan to Qozog'iston va O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy qismida, Ural, Volga erlarigacha tarqalganlar.

Miloddan avvalgi 2 ming yillikning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo hududida qadimgi janubiy va shimoliy qiyofadagi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan odamlar vakillarining aralishib ketishi jarayoni boshlanadi. Shu davrga kelib bronza davri qabilalari O'rta Osiyodagi turli elatlarga asos solganlar.

O'zbekiston hududida joylashgan shu elatlarning vakillari - so'g'dlar, baqtriylar, xorazmiylar va saklar, o'zbek xalqining qadimgi ajdodlaridan bo'lib, ular haqida ayrim ma'lumotlar qadimgi yozma manbalarda saqlangan.

Miloddan avvalgi 1 ming yillikdan boshlab, yirik madaniy-tarixiy viloyatlar - Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Farg'ona, Shosh (Choch) qadimdan, to o'rta asrlargacha Sharq hududlarida juda mashhur bo'lgan.

Antropologik va yozma manbalarning ma'lumotlari O'rta osiyoda alohida eng qadimgi elatlarning shakllanishi va etnik hududlarning ajrala boshlashi miloddan avvalgi IX - VIII asrlarga oid bo'lgani haqida dalolat beradi. Bu masalani o'rganish juda murakkab muammo bo'lsa ham, shubhasiz aytib o'tish kerakki, miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida Erondagi ahmoniyalar sulolasiga podsholarning O'rta Osiyoga yurishlari boshlanganda bu elatlarning ajrala borish jarayoni butunlay tugagan va turli qadimgi xalqlarning hududiy joylashuv chegaralari, viloyatlarning umumiyligi chegaralari ahmoniylardan ancha oldingi davrlarda shakllangan edi. Yozma manbalarga ko'ra ahmoniyalar O'rta Osiyoning alohida yirik viloyatlariga qarshi harbiy yurishlarni boshlaganlar. Demak, O'rta Osiyo viloyatlari va aholisi haqida, ularning hududiy joylashuvi va ayrim viloyatlarning chegaralari haqida Sharqda turli ma'lumotlar to'plangan edi.

Zardushtiylik paydo bo'lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya'ni quidorlik davri endi paydo bo'layotgan davr edi. U urug'-qabilachilik tuzumi emirilib aholi qullar va quidorlarga, zolim va mazlumlarga bo'linayotgan davr bo'lgan. Bu din eng avval O'rta Osiyo, so'ng Eron, Ozarbayjonda qaror topgan edi.

Butun O'rta Osiyo moddiy va ma'naviy madaniyatining beshigi Xorazm vohasi va u erda yashagan turkiy elatlar bo'lgan, shulardan o'zbek elati tashkil topgan.

Zardushtiylik eradan avvalgi 7-6 asrlarga xos bo'lgan din sifatida undan oldingi urug'-qabilachilik dirlari negizida paydo bo'lgan yakka xudolik dini bo'lgan. U to 7-9 asrlargacha turli shaklda davom etib, so'ng o'rnini islom egalladi. U dastavval Xorazm vohasida shakllanib, yaqin va o'rta Sharqqacha tarqalib, ayrim qoldiqlari haligacha saqlanib kelmoqda.

Vujudga kelishi. Zardushtiylik mil. av. III-II ming yilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan dindir. Zardushtiylik vahy orqali e'lon qilingan jahon dinlarining eng qadimiysisidir. U insoniyatga boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir. Insoniyat tarixida har bir kishi uqidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida birinchi bor shu din doirasida fikr yuritildi. Keyingi asrlarda bu g'oyalar yahudiylilik, xristianlik va boshqa dinlar tarafidan o'zlashtirildi. Aytib o'tish joizki, ushbu din paydo bo'lgan davr va uning vatani – hali fanda oxirigacha to'liq echilgan masalalar emas. Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish Avestoda «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi talqin etiladi. Zardushtiylik yana «Behdin», ya'ni «Eng yaxshi din» deb ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. «Mazda» so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi «Axura» qo'shilib, zardushtiylikning ilohiyati – Axura-Mazda nomi

paydo bo'lgan. Bu – «Janob Mazda» yoki «Iloh» demakdir. Zardusht nomi tadqiqotlarda Zaratushra, Zarduts, Zoroatsr ko'rinishlarida ham ishlataladi. Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'Imaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilsalar, boshqalar afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u taxminan mil. av. 1200-570 yillar orasida yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Tadqiqotchi M. Boys ta'kidlashicha, u mil. av. 1500-1200 yillar orasida yashagan. Zardusht Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan ko'pxudolikka negizlangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni isloh qilib, yangi dinga asos soldi. Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi xususida ikki xil qarash bor. Birinchisi – «G'arb nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra Midiya (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdarlarining dalili shuki, birinchidan, zardushtiylikning qadimiy Eron hududlarida keng tarqalganligi bo'lsa, ikkinchidan, zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish Avestoga keyin yozilgan sharhlarning qadimiy Eron-pahlaviy tilida bo'lganligidir. E'tibordan chiqarmaslik kerakki, zardushtiylik uch buyuk Eron imperiyasi – Ahamoniylar, Arshakiylar va Sosoniylar davrlarida, ya'ni mil. av. XI asrdan to mil. XII asrigacha ketma-ket aynan Yaqin va O'rta Sharqda davlat dini maqomida bo'lgan. Ikkinchisi, «Sharq nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra, Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi. Ko'pchilik manbashunoslar ikkinchi nazariya tarafdarlaridirlar. Xorazm zardushtiylikning muqaddas olovi Ozarxurra birinchi bor yoqilgan va eng buyuk xudo – Axura-Mazdaning Zardusht bilan bog'langan joyi hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi Avestoda: «Birinchi bor muqaddas olov – «Ozarxurra» «Airyanem-Vaeja» (ba'zi manbalarda – «Eran-vej»)da yoqildi», deyiladi. «Airyanem-Vaeja»ning geografik va iqlimi tavsiyi Xorazmnikiga to'g'ri keladi. Avestoda Axura-Mazda tomonidan yaratilgan «Barakot va najot» sohibi bo'lgan bir qator mamlakatlar zikr etiladi va ularning eng birinchisi, «dunyoda hech narsa chiroyiga teng kela olmas Airyanem-Vaeja», keyin esa «odamlar va chorva podalariga mo'l» Sug'd (So'g'd), «qudratli va muqaddas» Mouru (Marv), «baland ko'tarilgan bayroqlar mamlakati» Baxdi (Baqtriya) zikr etiladi.

Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiyashtiruvchi e'tiqodlarga (Markaziy Osiyo qadimgi aholisining «eski dini»ga) nisbatan monoteitsik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi qurbanliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo'riq er ochib, uni bog'u rog'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi. Aksincha, bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladilar. Zardusht insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni o'rgatmoqchi bo'ladi. Bunga ko'ra insonning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo'lajak, har bir inson o'lgandan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha abadiy rohat – jannatga, yoki yomon ishlari ko'p bo'lsa na xursandlik va na xafalik ko'rmaydigan arosat joy –

misvongatuga tushadi. Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgani turadi: yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'llim o'rtaida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axura-Mazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu (yoki Axriman) ifodalaydi. Axura-Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi. Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab, sig'inishi shart. Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur – suv, olov, er va havo ulug'lanadi. Zardushtiylik dafn marosimi o'ziga xos bo'lib, o'lganlar bir necha pats, baland «sukut minoralari» – daxmalarga solinadi, u erda murdalarning go'shtlarini qushlar eb, suyaklarini tozalaydi. Go'shtdan tozalangan suyaklar maxsus sopol idishlarga solinib minora o'rtaida quduqqa sochib yuboriladi. Bunda poklik bilan noplilikning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi. Zardushtiylik dini dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri hisoblanib, mil. av. XII-XI asrlarda Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Kichik Osiyo xalqlari unga e'tiqod qilganlar. Eronda Sosoniylar sulolasи hukmronligi davrida uning muqaddas kitobi Avesto ruhoniylar tomonidan og'zaki rivoyatdan yig'ilib, birinchi marta kitob shakliga keltirilgan. Ayrim qismlariga, ayniqsa «Videvdat» bo'limiga o'zgartirishlar kiritilib, qayta ishlangan. VII asrda O'rta Osiyoga islom dini kirib kelib, keng tarqalguniga qadar zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan. Buni, jumladan, arxeologik tadqiqotlar isbotlaydi. Hozirgi kunda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi diniy jamoalar mavjud.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.Is'hoqov. "Avesto, uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni" konferensiyasidagi tezislар to'plamidan. O'zR FA. 2001-yil. 5-bet.
2. A.V.Narbekov. "Dinshunoslik asoslari". Toshkent-2012. 81-bet.
3. <http://xorazmiy.uz>
4. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/z/zardushtiylik/>
5. A.Sagdullayev, B.Aminov, O'.Mavlonov, N.Norqulov. "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti". I-qism. "Akademiya" nashriyoti. Toshkent- 2000. 19-bet.